

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 150-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBEK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH

Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150





MILLIY IQTISODIYOTNI SANOATLASHUVNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi (DSc)

E-mail: erkayevakrom27@gmail.com

ORCID: 0009-0001-2638-7958

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvining rivojlangan iqtisodiyotga erishgan barcha jahon mamlakatlarini iqtisodiy nazariy maktablarining ilmiy nazariyalari tahlil etilgan. Unda «Sanoatlashtirish» tushunchasiga asosiy ta'riflar, Iqtisodiy maktablarni sanoatlashtirish nazariyasining xronologik rivojlanishi, List nazariyasining ikki tomoni, Iqtisodiy ta'limotlar va nazariy yo'nalishlarning tarixiy evolyutsiyasi qiyosiy tahlil etilgan. Jahonda sanoatlashuv darajasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri ekanligi, hozirgi globallashuv sharoitida dolzarb masalalar yoritib berilgan. Shu bilan birga MDX mamlakatlari olimlari va O'zbekistonlik olimlarni ilmiy tatqiqot ishlari sanoatlashuv darajasini zamonaviy mexanizmlarini tartibga solish borasidagi islohotlarning asosiy maqsadlari, sanoatlashtirish va iqtisodiy o'sish bosqichlari, Milliy iqtisodiyot sanoatlashuv darajasini oshirishda O'zbek olimlari ilmiy izlanishlari natijaga olib keluvchi iqtisodiy va ijtimoiy cheklovlarni tavsiflash, yetakchi mamlakatlarning tajribalarini O'zbekiston uchun ahamiyatli tajribalari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: sanoatlashtirish, industrializatsiya, asr, Sanoat-4.0, institutsional, texnologik, tarkibiy, periferiya, Markaz, CEPAL, Neoklassik, Strukturalizm, Keynschilik, innovatsion, proteksionistik, Strategik tarmoq, o'sish, YaIM, «O'ZBEKISTON-2030», Strategiya, Respublika, mintaq.

Аннотация. В данной статье анализируются научные теории индустриализации народного хозяйства всех стран мира, достигших уровня развитой экономики. Проводится сравнительный анализ основных определений понятия «индустриализация», хронологического развития теории индустриализации в экономических школах, двух сторон теории Листа, исторической эволюции экономических учений и теоретических направлений. Выделяется тот факт, что уровень индустриализации в мире является одной из наиболее актуальных задач, стоящих перед развитыми и развивающимися странами, а также освещаются современные проблемы в условиях глобализации. Одновременно описываются научные работы ученых из стран СНГ и ученых из Узбекистана, рассматриваются основные цели реформ в регулировании уровня индустриализации, этапы индустриализации и экономического роста, особенности экономических и социальных ограничений, достигнутых узбекскими учеными в повышении уровня индустриализации народного хозяйства, а также опыт ведущих стран, имеющий важное значение для Узбекистана.

Ключевые слова: индустриализация, индустриализация, век, ндустрия-4.0, институциональный, технологический, структурный, периферия, центр, ЦЕПАЛ, неоклассический, структурализм, кейнсианство, инновационный, протекционистский, стратегический сектор, рост, ВВП, «УЗБЕКИСТАН-2030», стратегия, республика, регион.

Annotation. This article analyzes the scientific theories of the industrialization of the national economy of all countries of the world that have achieved a developed economy. It provides a comparative analysis of the main definitions of the concept of "industrialization", the chronological development of the theory of industrialization of economic schools, the two sides of List's theory, the historical evolution of economic teachings and theoretical directions. The fact that the level of industrialization in the world is one of the most urgent tasks facing developed and developing countries, and current issues in the current globalization environment are highlighted. At the same time, the scientific research work of scientists from the CIS countries and scientists from Uzbekistan describes the main goals of reforms in regulating the level of industrialization, the stages of industrialization and economic growth, the characteristics of the economic and social constraints that Uzbek scientists have achieved in increasing the level of industrialization of the national economy, and the experiences of leading countries that are significant for Uzbekistan.

Keywords: industrialization, industrialization, century, Industry-4.0, institutional, technological, structural, periphery, Center, CEPAL, Neoclassical, Structuralism, Keynesianism, innovative, protectionist, Strategic sector, growth, GDP, "UZBEKISTAN-2030", Strategy, Republic, region.





KIRISH

Sanoatlashtirish (industrializatsiya) – milliy xo'jalikda sanoatning yetakchi rolini kuchaytirish, ishlab chiqarish kuchlarini jadal rivojlantirish hamda mehnat unumdorligini keskin oshirishni anglatadi.

Dunyoda sanoatlashtirish tarixi va evolyutsiyasi quyidagi asosiy davrlarni bosib o'tdi. Birinchi sanoat inqilobi XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida Angliyada Suv va bug' kuchidan foydalanish hamda to'qimachilik sanoatining mexanizatsiyalashuvi. Ikkinchi sanoat inqilobi XIX asr oxiri - XX asr boshi Elektr energiyasidan keng foydalanish, konveyer usulida ommaviy ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi, avtomobilsozlik va kimyo sanoatining rivojlanishi. Uchinchi sanoat inqilobi XX asrning 2-yarmi Raqamlashtirish, axborot texnologiyalari, elektronika va internetning ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilishi. To'rtinchi sanoat inqilobi Industry 4.0 - hozirgi davr Sun'iy intellekt, robototexnika, narsalar interneti (IoT) va nanotexnologiyalarni sanoatga integratsiya qilish natijasida yuzaga kelgan.

Shu bilan birga O'zbekistonda 2017-yildan boshlangan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar doirasida mamlakat yalpi ichki mahsulotida sanoat ulushini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport salohiyatini mustahkamlash dolzarb vazifa sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasida mamlakat iqtisodiyotini global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylantirish, sanoat mahsuloti hajmini va eksportini sezilarli oshirish, jahonning eng innovatsion ellik davlati qatoriga kirish vazifalari qo'yilgan[2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorij olimlaridan F.List milliy sanoatni himoya tarifi siyosati orqali rivojlantirish nazariyasini (1962), X.Chenery va M.Sirkuin iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishining rivojlanish bosqichlariga xos empirik qonuniyatlarini (1975), R.Prebish rivojlanayotgan mamlakatlarda import o'rnini bosuvchi sanoatlashtirish strategiyasini (1950), D.Rodrik esa erta deindustrialashuv hodisasi va uning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini (2016)o'rganishgan.

MDX mamlakatlari olimlaridan A.G.Mokronosov, I.N.Mavrina Sanoatda raqobatbardoshlikni (2014), A.E.Zakondirin Mavjud eng yaxshi texnologiyalarni joriy etish tamoyillari asosida sanoat ishlab chiqarishini ko'kalamzorlashtirishning uslubiy yondashuvlari va tashkiliy-iqtisodiy vositalarini (2023), V.I.Gerasimov, Kodaneva S. I. BRIKS mamlakatlari o'rtasidagi ilmiy, texnologik va innovasion hamkorlikni ko'rib chiqish: tendensiyalar, istiqbollar va muammolarni (2023), N.G.Shishatskiy Yangi sanoatlashtirish va mintaqaviy sanoat majmuasini modernizatsiya qilish tendensiyalarini (2022), S.B.Baurina, Ye.V.Nazarova Sanoat muhitida texnologik innovatsiyalar (2023) asarlarida hamda ilmiy ishlarida mazkur tadqiqot yo'nalishiga doir masalalar atroflicha o'rganganlar





O'zbekiston iqtisodchi olimlar Vaxobov.A.V., O'lmasov A., mamlakatdagi sanoat korxonalari faoliyatini bozor sharoitida boshqarishni (2014), Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh., sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish mahsuldorligini oshirish va milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning nazariy-metodologik asoslarini (2017), Abduraxmonov Q.X. mehnat unumdorligini ko'tarish orqali sanoat tarmoqlarini raqobatbardoshligini ta'minlashni (2012), Abulqosimov X.P. Sanoat tarmoqlarida iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va rivojlanish yo'nalishlarini takomillashtirishni (2022), Topildiyev S.R., sanoatni davlat tomonidan boshqarish usullarini (2025), Jurayev T.T., industrial jamiyatdan postindustrial innovasion tizimlarga o'tish qonuniyatlarini (2024). bo'yicha o'z ilmiy tatqiqotlarini olib borishgan. Ammo mavjud ilmiy tadqiqotlarda sanoatlashtirishning umumiy nazariy masalalari hamda ayrim tarmoqlarni rivojlantirish yo'nalishlari yoritilgan bo'lsa-da, milliy iqtisodiyotni sanoatlashuv darajasini oshirishning nazariy jihatlarini yaxlit tizim sifatida takomillashtirish, sanoatlashuv qonuniyatlari, tamoyillari va omillarini o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, qiyosiy, mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari, respublika yangi iqtisodiy siyosatda izchillik bilan olib borilayotgan islohotlar, O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni sanoatlashuviga innovatsion texnologiyalardan foydalanish tizimini rivojlantirish, ailmay abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash bo'yicha iqtisodiy tajribalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlar asosida yoritilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashda sanoatlashtirish strategik ustuvor yo'nalish sifatida barcha davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sanoat ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sishning asosiy multiplikatori bo'lib, u nafaqat yaratilayotgan qo'shilgan qiymatni, balki bandlik, eksport, texnologik rivojlanish va innovatsion salohiyatni ham belgilaydi.

Jahon tarixi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan iqtisodiyotga erishgan barcha mamlakatlar Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va keyinroq Xitoy o'z rivojlanishining bir bosqichida rejali va maqsadli sanoatlashtirish strategiyasini amalga oshirgan[19]. Bu jarayonda davlatning roli, institutsional shart-sharoitlar va texnologik imkoniyatlar uyg'unlashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan.

O'zbekiston uchun sanoatlashtirish masalasi o'ziga xos ahamiyatga ega. 2017 yildan boshlangan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar doirasida mamlakat yalpi ichki mahsulotida sanoat ulushini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli





mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport salohiyatini mustahkamlash dolzarb vazifa sifatida belgilangan[1].

1-jadval

«Sanoatlashtirish» tushunchasiga asosiy ta'riflar

№	Olimlar	«Sanoatlashtirish» tushunchasiga berilgan ta'riflar
1.	Chang va Andreoni	Sanoatlashtirish agrar yoki xomashyo iqtisodiyotidan manufaktura ishlab chiqarishiga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayoni bo'lib, texnologik, tashkiliy va ijtimoiy o'zgarishlarni qamrab oladi
2.	Rodrik	Sanoatlashtirish arzon mehnatdan foydalanib eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni rivojlantirish, keyinchalik mahsuldorlikni oshirishning yagona sinovdan o'tgan yo'lidir.
3.	UNIDO	Sanoatlashtirish agrar yoki xomashyo iqtisodiyotidan manufaktura ishlab chiqarishiga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayoni bo'lib, texnologik, tashkiliy va ijtimoiy o'zgarishlarni qamrab oladi.
4.	Mahkamov va Mustafoulov	Sanoatlashtirish ishlab chiqarish kuchlarini jadallashtirishni, texnologik yangilanishni va mehnat taqsimotini chuqurlashtirish orqali milliy iqtisodiyotning strukturaviy transformatsiyasi.
5.	O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston 2030" Strategiyasi	Sanoatlashtirish xomashyo eksportidan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot eksportiga transformatsiya qilishga yo'naltirilgan strategik jarayon.

Manba: muallif ishlanmasi.

«Sanoatlashtirish» yoki «industrializatsiya» atamasi iqtisodiy adabiyotlarda XIX asr oxirida keng qo'llana boshlagan. Biroq bu jarayonning ildizlari XVIII asrning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniyada boshlangan Birinchi sanoat inqilobiga borib taqaladi bu davrda manuella ishlab chiqarishdan mashina-fabrika ishlab chiqarishiga o'tish boshlandi[20].

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotda «sanoatlashtirish» tushunchasiga bir necha xil ta'riflar berilgan. Bu ta'riflarning har biri ushbu murakkab jarayonning turli qirralarini aks ettiradi.

Yuqoridagi keltirilgan (1-jadval) ta'riflar tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoatlashtirish uch asosiy o'lchamni o'z ichiga oladi:

- tarkibiy o'zgarish iqtisodiyotda sanoat ulushining oshishi;
- texnologik transformatsiya yangi texnologiyalarni o'zlashtirish;
- institutsional o'zgarish bozor va davlat institutlarining takomillashuvi.

Iqtisodiy tafakkur tarixida sanoatlashtirish masalasini o'rganuvchi bir necha yirik nazariy maktablar shakllangan. Bu maktablarning har biri o'z davrining iqtisodiy va siyosiy realliklarini aks ettirgan hamda sanoatlashtirish siyosatiga katta ta'sir ko'rsatgan.

2-jadvalda keltirilgan nazariy maktablarni qiyosiy tahlil qilish sanoatlashtirish konsepsiyasining rivojlanishi uchta fundamental ilmiy savol





atrofida shakllanganligini ko'rsatadi. Bular: sanoatlashtirish jarayonida davlatning roli qanday bo'lishi kerak, iqtisodiy o'sishning asosiy manbai nimadan iborat hamda texnologik taraqqiyot sanoat siyosatiga qanday ta'sir ko'rsatadi.

2-jadval

Iqtisodiy maktablarni sanoatlashtirish bo'yicha nazariy qarashlari

№	Nazariy yo'nalish	Asosiy vakillari	Asosiy g'oyalar	Sanoat siyosatiga ta'sir
1.	Merkantilizm XVI–XVIII asr	T.Mun, J.B.Kolber	Ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksportni ko'paytirish	Proteksionizm, davlat manufakturalari
2.	Klassik maktab XVIII–XIX asr	A.Smit, D.Rikardo, J.S.Mill	Mehnat taqsimoti, qiyosiy ustunlik, erkin savdo	Laissez-faire siyosati
3.	Listizm (milliy maktab) XIX asr	F.List, A.Gamilton	Milliy sanoatni rivojlantirish, «bolalik tarmoqlar»ni himoya	Import boji, subsidiyalar
4.	Marks maktabi XIX asr	K.Marks, F.Engels	Ishlab chiqarish vositalari mulkchiligi	Davlat sanoatlashtirish modeli
5.	Neoklassik maktab XIX–XX asr	A.Marshall, A.Pigu	Bozor muvozanati, marginal tahlil	Minimal davlat aralashuvi
6.	Keynschilik XX asr	J.M.Keyns	So'ramni boshqarish, investitsiya multiplikatori	Fiskal va monetar siyosat
7.	Rivojlanish iqtisodiyoti XX asr 50-70 yillar	Rozenshteyn-Rodan, Hirshman, Myrdal	«Katta turtki», bog'lanishlar, kumulyativ rivojlanish	Import almashtirish, DXSh
8.	Strukturalizm XX asr 90 yillar	R.Prebish, CEPAL maktabi	Markaz-periferiya, shartlar almashishi	LAA mamlakatlarida ISI siyosati
9.	Institutsional maktab XX asr	D.Nort, O.Uilyamson	Institutlar roli, tranzaksiya xarajatlari	Institutsional islohotlar
10.	Innovatsion rivojlanish XX–XXI asr	Y.Shumpeter, K.Freeman	Yaratuvchi buzilish, texnologik paradigma	TTCh, innovatsiya tizimlari
11.	Sanoat 4.0 nazariyasi XXI asr	K.Shvab va boshqalar	Raqamlashtirish, AI, IoT, global zanjirlar	Raqamli transformatsiya siyosati

Manba: muallif ishlanmasi.

Jadval ma'limotlarida merkantilizm va klassik maktab o'rtasidagi asosiy qarama-qarshilik davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki masalasida yuzaga keladi. Merkantilistlar milliy ishlab chiqarishni bojxona tariflari va davlat qo'llab-quvvatlashi orqali rivojlantirish tarafdori bo'lgan bo'lsa, klassik maktab vakillari bozor mexanizmlari resurslarni samaraliroq taqsimlaydi degan g'oyani ilgari surdilar. Mazkur qarama-qarshilik bugungi kunda ham sanoat siyosatini ishlab chiqishda o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Jadvaldagi keyingi evolyutsion o'zgarish institutsional va innovatsion yondashuvlarning shakllanishi bilan bog'liq. Mazkur nazariyalar sanoat rivojlanishini endi faqat kapital va mehnat bilan emas, balki institutlar sifati,





bilimlar oqimi, innovatsion salohiyat va texnologiyalarni yaratish qobiliyati bilan izohlaydi. Shu sababli sanoat siyosatining obyekti ham o'zgardi: agar XX asr o'rtalarida asosiy e'tibor korxonalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lsa, XXI asrda innovatsion ekotizim, ilmiy-tadqiqot faoliyati va raqamli infratuzilmani rivojlantirish ustuvor yo'nalishga aylandi.

Listizm, Keynschilik va rivojlanish iqtisodiyoti maktablari esa sanoatlashtirishni rivojlanayotgan mamlakatlar nuqtai nazaridan qayta talqin qildi. Ushbu nazariyalarda davlat bozordagi muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etuvchi institut sifatida qaraladi. Ayniqsa, F.List tomonidan ilgari surilgan "infant industry" tamoyili hamda Rozenshteyn-Rodanning "Big Push" konsepsiyasi sanoat siyosatini selektiv qo'llab-quvvatlash zarurligini ilmiy asoslab berdi. Shunday qilib, sanoatlashtirish siyosati umumiy makroiqtisodiy choralar yig'indisidan ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish strategiyasiga o'tdi.

Nazariy maktablarni vaqt mezonini bo'yicha tahlil qilish yana bir muhim tendensiyaning namoyon etadi. Dastlabki nazariyalarda sanoatlashtirishning asosiy maqsadi ishlab chiqarish hajmini oshirish va importni qisqartirish bo'lgan bo'lsa, zamonaviy konsepsiyalarda asosiy e'tibor global qiymat zanjirlarida yuqori bo'g'inlarni egallash, texnologik mustaqillik va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan. Demak, sanoatlashtirishning mazmuni miqdoriy o'sishdan sifat jihatidan yangi iqtisodiy modelni shakllantirish bosqichiga o'tgan.

Fikrimizcha, O'zbekiston uchun ushbu nazariyalardan bittasini alohida tanlash emas, balki ularning komplementarligi tamoyiliga asoslangan sanoat siyosatini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash (Listizm), tarkibiy transformatsiyani jadallashtirish (rivojlanish iqtisodiyoti), institutlar sifatini oshirish (institutsional maktab) hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish (Sanoat 4.0) yagona sanoatlashtirish modelining o'zaro bog'liq elementlari sifatida qaralishi lozim.

Pol Rozenshteyn-Rodan 1943-yildagi mashhur maqolasida "katta turtki" (big push) kontsepsiyasini taklif etdi (3-jadval). Uning asosiy tezisi: rivojlanmagan mamlakatlarda sanoatlashtirish uchun alohida tarmoqlarga kichik investitsiyalar yordamsiz ko'p tarmoqli bir vaqtdagi investitsiya dasturi zarur[21].

Bu konsepsiya quyidagi mantiqqa asoslanadi: agar faqat bitta tarmoqni rivojlantirsak, ishchilarning ish haqi oshadi, lekin ular ushbu pulni boshqa mahsulotlarga sarflaydilar. Agar bir vaqtda ko'p tarmoq rivojlantirilsa, ishchilarning yalpi daromadi ortadi va ichki talab har bir tarmoqning mahsulotini sotib oladi bu mutanosib o'sishni ta'minlaydi.

Albert Hirshman (1958) "mutanosib rivojlanish" kontsepsiyasiga muholifat sifatida "nomutanosib rivojlanish" (unbalanced growth) strategiyasini taklif etdi. Uning fikricha, tanlangan "strategik" tarmoqlarni ataylab rivojlantirish orqali iqtisodiyotda "bog'lanishlar" (linkages) yaratiladi bu boshqa tarmoqlarni rivojlantirishga turtki beradi[22].





3-jadval

Iqtisodiyoti maktablarining sanoatni rivojlanishdagi asosiy konsepsiyalari

№	Konsepsiya	Muallif (yil)	Asosiy g'oya	Siyosiy xulosa	O'zbekiston uchun ahamiyati
1	Katta turtki (Big Push)	P.Rosenstein-Rodan (1943)	Ko'p tarmoqqa bir vaqtda investitsiya	Davlat koordinatsiyasi	Kompleks sanoatlashtirish
2	Nomutanosib rivojlanish	A.Hirschman (1958)	Strategik tarmoqlar o'sishni boshlaydi	Ustuvor tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash	Kimyo va avtomobilsozlik
3	Yaratuvchi buzilish	J.Schumpeter (1942)	Innovatsiya eski texnologiyani yangilaydi	Innovatsiyalarni rag'batlantirish	Yuqori texnologiyali sanoat
4	Texnologik paradigmalar	C. Perez (2002)	Texnologik to'liqlar rivojlanishni belgilaydi	Texnologik modernizatsiya	Raqamli iqtisodiyot
5	Sanoat 4.0	K. Schwab (2016)	AI, IoT va Big Data asosida ishlab chiqarish	Raqamli transformatsiya	Smart Factory
6	Iqtisodiy o'sish bosqichlari	W.W.Rostow (1960)	Sanoatlashtirish besh bosqichda kechadi	Investitsiyalarni oshirish	Take-off bosqichini jadallashtirish

Manba: muallif ishlanmasi.

Yozef Shumpeter iqtisodiy o'sishning dvigatelisi sifatida innovatsiyani birinchi o'ringa qo'ydi. Uning «yaratuvchi buzilish» (creative destruction) kontsepsiyasiga ko'ra, iqtisodiyot eskirgan texnologiya va tuzilmalarni yangilari bilan almashtirish orqali rivojlanadi[23].

Karlota Perez Shumpeter g'oyalarini yanada rivojlantirib, texnologik inqiloblar tarixini tizimli tadqiq etdi. U beshta asosiy texnologik paradigmani ajratdi: sanoat inqilobi (1771), bug' va temir yo'llari (1829), po'lat va elektr (1875), neft va avtomobillar (1908), axborot va telekommunikatsiya (1971). Bugungi Sanoat 4.0 paradigmasini esa oltinchi to'liq sifatida tahlil etdi[24].

Klaus Shvab 2016-yilda «To'rtinchi sanoat inqilobi» tushunchasini ilmiy aylanmaga kiritdi. U fizik, raqamli va biologik sohalarning to'qnashuvini tavsiflaydi. Bu paradigma sanoatlashtirishning an'anaviy modellarini tubdan o'zgartirayotgan: endi «sanoatlashtirish» nafaqat zavodlar qurish, balki raqamli platformalar, aqlli tizimlar va ma'lumotlar iqtisodiyotini yaratishni ham anglatadi[25].

Sanoat 4.0 ning asosiy texnologiyalari: sun'iy intellekt (AI), narsalar interneti (IoT), robotlashtirish, katta ma'lumotlar (Big Data), raqamli egizak (Digital Twin), additiv ishlab chiqarish (3D chop etish) va blokchein. Bu texnologiyalar birgalikda «aqlli zavod» (Smart Factory) kontsepsiyasini amalga oshiradi.

Uolt Rostou (1960) iqtisodiy o'sishning besh bosqich nazariyasini taklif etdi: an'anaviy jamiyat, o'zgarishga tayyorlik, «yuqoriga ko'tarilish» (take-off), to'liq etuklikka intilish va ommaviy iste'mol jamiyati[26].





Rostouning “take-off” tushunchasi investitsiya darajasi YaIMning 10% dan oshishi va bir nechta rivojlanayotgan tarmoqlar paydo bo'lishi tarixiy jihatdan Buyuk Britaniya (1780-1800), Fransiya (1830-1860), Germaniya (1850-1873) va Janubiy Koreya (1960-1970) uchun tasdiqlangan. O'zbekiston 2017-yildan “take-off” bosqichiga o'tish belgilarini namoyon etmoqda: investitsiyalar YaIMning 36% ga yetdi, 15 dan ortiq sanoat tarmog'i jadal rivojlanmoqda.

4-jadval

Sanoatlashtirish va iqtisodiy o'sish bosqichlari (Rostou modeli)

№	Bosqich	Xarakteristika	Investitsiya /YaIM %	Asosiy sanoat	Namuna mamlakatlar	O'zbekiston holati
1.	An'anaviy jamiyat	Agrar iqtisodiyot, texnologiya deyarli yo'q	<5%	Qishloq xo'jaligi	Prekolonial Afrika	1991 yilgacha
2.	O'zgarishga tayyorlik	Infratuzilma va savdo rivojlanishi	5–10%	Transport, asosiy qazib olish	Hindiston (1950-lar)	1991–2017
3.	Take-off (yuqoriga ko'tarilish)	Sanoat sektor o'sa boshlaydi, investitsiya oshadi	10–20%	Yengil sanoat, qayta ishlash	Janubiy Koreya (1960-lar)	2017–hozir
4.	To'liq etuklikka intilish	Texnologik tarmoqlar kengayadi	20–30%	Og'ir sanoat, kimyo, elektronika	Yaponiya (1970-lar)	2030–maqsad
5.	Ommaviy iste'mol	Yuqori texnologiya, xizmatlar ustuvor	30%+	IT, farmatsevtika, aviasanoat	AQSh, Germaniya	Uzoq muddatli

Manba: Mahkamov, R., & Mustafoqulov, Sh. (2021). O'zbekiston iqtisodiyotini sanoatlashtirish: nazariy-metodologik asoslar. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3, 45–58.

4-jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, U.Rostouning iqtisodiy o'sish bosqichlari nazariyasida sanoatlashtirish iqtisodiy rivojlanishning markaziy omili sifatida talqin etiladi. Jadvalda keltirilgan bosqichlar o'rtasidagi qiyosiy tahlildan mulumki, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish tuzilmasining murakkablashuvi va texnologik darajaning yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 5 foizdan kam bo'lgan an'anaviy jamiyat bosqichida iqtisodiyotning asosiy qismini qishloq xo'jaligi tashkil etsa, ushbu ko'rsatkich 20–30 foizga yetganda yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi sanoat tarmoqlari shakllana boshlaydi.

Tahlililariga ko'ra sanoatlashtirishda har bir bosqichida yetakchi tarmoqlarning almashinishi kuzatilishini ko'rsatadi. Dastlab agrar ishlab chiqarish ustunlik qilgan bo'lsa, keyinchalik transport va qazib olish sanoati rivojlanadi, undan so'ng qayta ishlash sanoati iqtisodiy o'sishning asosiy





drayveriga aylanadi. Texnologik etuklik bosqichida mashinasozlik, kimyo va elektronika tarmoqlari yetakchilik qilsa, ommaviy iste'mol bosqichida iqtisodiyotning asosiy raqobat ustunligi bilimga asoslangan yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va xizmatlar sektoriga o'tadi. Bu esa sanoatlashtirish jarayonining oddiy ishlab chiqarish hajmini oshirish emas, balki iqtisodiyotning sifat jihatidan transformatsiyalanishini anglatadi.

Jadvalda keltirilgan xorijiy mamlakatlar tajribasi ham Rostou nazariyasining amaliy tasdig'ini ko'rsatadi. Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va AQSh misolida sanoatlashtirish investitsiyalarni izchil oshirish, texnologik modernizatsiya va ishlab chiqarish diversifikatsiyasi orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlagan. Ayniqsa, Janubiy Koreya tajribasi davlatning faol sanoat siyosati, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va inson kapitaliga investitsiyalar iqtisodiy "take-off" bosqichini tezlashtirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston iqtisodiyotini mazkur nazariya nuqtai nazaridan baholash mamlakatda 2017-yildan boshlab sanoatlashtirishning yangi bosqichi shakllanayotganligini ko'rsatadi. So'nggi yillarda investitsiyalar hajmining sezilarli ortishi, sanoat zonalarining tashkil etilishi, qayta ishlash sanoati ulushining kengayishi hamda eksport tarkibini diversifikatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar Rostou ta'riflagan "take-off" bosqichining muhim belgilariga mos keladi. Shu bilan birga, texnologik etuklik bosqichiga o'tish uchun yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D), raqamli texnologiyalar hamda malakali inson kapitaliga yo'naltiriladigan investitsiyalarni yanada kengaytirish zarur.

Fikrimizcha, Rostouning iqtisodiy o'sish bosqichlari nazariyasi bugungi globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida ayrim jihatlari bilan takomillashtirilishi lozim. Chunki zamonaviy sanoatlashtirish faqat investitsiyalar hajmining ortishi bilan emas, balki innovatsion salohiyat, institutsional sifat, raqamli infratuzilma va global qiymat zanjirlaridagi ishtirok darajasi bilan ham belgilanadi. Shu sababli O'zbekistonning uzoq muddatli sanoat rivojlanish strategiyasida Rostou modelining asosiy tamoyillarini Sanoat 4.0 konsepsiyasi va innovatsion rivojlanish nazariyalari bilan uyg'unlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5-jadval ma'lumotlari orqali aniqlashimiz mumkinki, sanoatlashtirish nazariyasi iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari davomida ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga qaratilgan yondashuvdan innovatsion va raqamli transformatsiyaga asoslangan kompleks rivojlanish modeligacha evolyutsiyani amalga oshirgan. Nazariy maktablarni qiyoslash ularni uch bosqichga ajratish imkonini beradi, bular: klassik sanoatlashtirish nazariyalari, rivojlanish iqtisodiyoti maktabi hamda innovatsion-raqamli sanoatlashtirish konsepsiyalari.

Birinchi bosqichda sanoatlashtirishning asosiy vazifasi milliy ishlab chiqarishni shakllantirish va bozorlarni kengaytirishdan iborat bo'lgan. Ikkinchi bosqichda esa e'tibor iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi, davlat investitsiyalari va tarmoqlararo bog'liqliklarga qaratildi. Uchinchi bosqichda esa





bilim, innovatsiyalar, sun'iy intellekt, IoT va Big Data sanoat rivojlanishining asosiy omillariga aylandi.

5-jadval

Iqtisodiy ta'limotlar va nazariy yo'nalishlarning tarixiy evolyutsiyasi

№	Nazariy yo'nalish	Davr	Asosiy maqsad	Davlat roli	Texnologiyaga yondashuv	Zamonaviy ahamiyati
1.	Merkantilizm	XVI–XVIII	Eksport va ishlab chiqarish	Faol	Cheklangan	Proteksionizm
2.	Klassik maktab	XVIII–XIX	Erkin bozor	Minimal	Bozor omili	Qiyosiy ustunlik
3.	F.List milliy maktabi	XIX	Milliy sanoat	Faol	Learning by doing	Infant industry
4.	Keynschilik	XX	Bandlik va o'sish	Faol investitsiya	Davlat rag'batlantiradi	Antisiklik siyosat
5.	Rivojlanish iqtisodiyoti	XX asr 70-yillar	Strukturaviy transformatsiya	Strategik	Tarmoqlararo bog'lanish	Klasterlar
6.	Institutsional maktab	XX oxiri	Institutlar sifati	Islohotchi	Innovatsiya muhiti	Institutsional rivojlanish
7.	Innovatsion rivojlanish	XX–XXI	Bilim iqtisodiyoti	Innovatsion qo'llab-quvvatlaydi	Asosiy omil	Milliy innovatsion tizim
8.	Sanoat 4.0	XXI	Raqamli sanoat	Raqamli infratuzilma	AI, IoT, Big Data	Global qiymat zanjirlari

Manba: muallif ishlanmasi.

Fikrimizcha, nazariy evolyutsiyaning eng muhim natijasi davlatning sanoat siyosatidagi funksiyasi o'zgarganligidir. Endilikda davlatning asosiy vazifasi faqat himoya choralarini qo'llash emas, balki innovatsion ekotizimni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv uchun institutsional sharoit yaratishdan iborat.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida sanoatlashtirish siyosatini shakllantirishda F.Listning milliy sanoatni qo'llab-quvvatlash konsepsiyasi, rivojlanish iqtisodiyoti maktabining strukturaviy transformatsiya yondashuvi va Sanoat 4.0 paradigmasining innovatsion tamoyillarini integratsiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur yondashuv milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashning nazariy asosini tashkil etadi. Shu bilan birga O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar o'z ilmiy tatqiqotlarida sanoatlashuv darajasini oshirishga e'tibor qaratishgan.

Bundan tashqari O'zbekistonlik olimlardan sanoatlashuv darajasini oshirishga qo'shgan amaliy hissalarining asosiy yo'nalishlari:

Mashinasozlik va charm sanoatida O'zbekiston Fanlar akademiyasi olimlari tomonidan charmga ishlov berish tezligini avtomatik boshqaruvchi valli mashina





ixtiro qilinib, ishlab chiqarishga tatbiq etildi. Bu charm-poyabzal sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kimyo va metallurgiyada ammiakli selitra ishlab chiqarish chiqindilarini utilitatsiya qilish va Toshkent truba zavodida metall konstruksiyalarni zanglashdan saqlovchi fosfatlovchi eritmalarni mahalliy xomashyolardan (ammofos va rux oksidi) olish texnologiyalari yaratildi. Bu xorijiy materiallarni to'liq mahalliyashtirish imkonini berdi.

6-jadval

Milliy iqtisodiyot sanoatlashuv darajasini oshirishda O'zbek olimlari ilmiy izlanishlari

№	O'zbekistonlik olimlar	Ilmiy izlanishlari
1.	Баҳобов A.V., O'Imasov A.	mamlakatdagi sanoat korxonalari faoliyatini bozor sharoitida boshqarishni
2.	Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh.,	sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish mahsuldorligini oshirish va milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning nazariy-metodologik asoslarini,
3.	Abduraxmonov Q.X.	mehnat unumdorligini ko'tarish orqali sanoat tarmoqlarini raqobatbardoshligini ta'minlashni,
4.	Abulqosimov X.P.	Sanoat tarmoqlarida iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va rivojlanish yo'nalishlarini takomillashtirishni,
5.	Topildiyev S.R.	sanoatni davlat tomonidan boshqarish usullarini, sanoatda yashil iqtisodiyotni qo'llash zarurligini.
6.	Jurayev T.,	industrial jamiyatdan postindustrial innovasion tizimlarga o'tish qonuniyatlarini,

Manba: muallif ishlanmasi.

Nano-texnologiyalarda 2017 yilda kremniy dioksidi nanozarrachalari asosida quyosh panellari va sanoat oynalarini changdan himoyalovchi o'ta shaffof qatlamlar (qoplamalar) olish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Ekologiya va resurs tejashda Toshkent kimyo-texnologiya instituti va boshqa ilmiy markazlar tomonidan sanoat korxonalarining oqova suvlarini tozalash hamda utilitatsiya qilish bo'yicha ekologik xavfsiz majmualar yaratildi. Bu suv resurslarini tejash imkonini beradi.

Tog'-kon sanoatida sanoat tarmoqlari, xususan tog'-kon korxonalari uchun maxsus innovatsion texnologiyalar ishlab chiqilib, sohritdagi texnologik jarayonlarning samaradorligi oshirildi.

O'zbekistonlik olimlar metallurgiya, neft-gaz, kimyo, charm-poyabzal va mashinasozlik tarmoqlarini mahalliyashtirish hamda modernizatsiya qilishga katta hissa qo'shgan. Ularning ishlanmalari import o'rnini bosish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston iqtisodiyotini nazariya nuqtai nazaridan baholash mamlakatda 2017-yildan boshlab sanoatlashtirishning yangi bosqichi shakllanayotganligini ko'rsatadi. So'nggi yillarda investitsiyalar hajmining





sezilarli ortishi, sanoat zonalarining tashkil etilishi, qayta ishlash sanoati ulushining kengayishi hamda eksport tarkibini diversifikatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar Rostou ta'riflagan "take-off" bosqichining muhim belgilariga mos keladi. Shu bilan birga, texnologik etuklik bosqichiga o'tish uchun yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D), raqamli texnologiyalar hamda malakali inson kapitaliga yo'naltiriladigan investitsiyalarni yanada kengaytirish zarur.

Fikrimizcha, Rostouning iqtisodiy o'sish bosqichlari nazariyasi bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida ayrim jihatlari bilan takomillashtirilishi lozim. Chunki zamonaviy sanoatlashtirish faqat investitsiyalar hajmining ortishi bilan emas, balki innovatsion salohiyat, institutsional sifat, raqamli infratuzilma va global qiymat zanjirlaridagi ishtirok darajasi bilan ham belgilanadi. Shu sababli O'zbekistonning uzoq muddatli sanoat rivojlanish strategiyasida Rostou modelining asosiy tamoyillarini Sanoat 4.0 konsepsiyasi va innovatsion rivojlanish nazariyalari bilan uyg'unlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.
3. List F. Das Nationale System der Politischen Ökonomie. – Stuttgart-Tübingen: Cotta, 1841.; Gerschenkron A. Economic Backwardness in Historical Perspective: A Book of Essays. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1962. – 456 p.
4. Chenery H., Syrquin M. Patterns of Development, 1950–1970. – London: Oxford University Press (for the World Bank), 1975. – 234 p.
5. Prebisch R. The Economic Development of Latin America and Its Principal Problems. – New York: United Nations, 1950. – 59 p.
6. Rodrik D. Premature Deindustrialization // Journal of Economic Growth. – 2016. – Vol. 21, № 1. – P. 1–33.
7. Mahkamov, R., & Mustafoqulov, Sh. (2021). O'zbekiston iqtisodiyotini sanoatlashtirish: nazariy-metodologik asoslar. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3, 45–58.
8. Мокроносов А.Г., Маврина И.Н. Конкуренция и конкурентоспособность: учебное пособие / Екатеринбург: Изд-во Урал ун-та, 2014. – 194, [2] с.
9. Закондырин А.Е. "Методологические подходы и организационно-экономические инструменты экологизации промышленных производств на принципах реализации наилучших доступных технологий" диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук/ Специальность: 5.2.3. - «Региональная и отраслевая экономика». Москва – 2023, – 261с.





10. Герасимов В.И., Коданева С. И. «Обзор научно-технологического и инновационного сотрудничества стран брикс: тенденции, перспективы и вызовы». Управление наукой: теория и практика, vol. 5, no. 1, 2023, pp. 204-229.
11. Шишацкий Н.Г. «Новая индустриализация и тенденции модернизации промышленного комплекса региона (на примере Красноярского края)». Региональная экономика и управление: электронный научный журнал, no. 3 (71), 2022, pp. 18. doi:10.24412/1999-2645-2022-371-18.
12. Баурина С. Б., Назарова Е. В. «Технологические новшества промышленной среды». Азимут научных исследований: экономика и управление, vol. 12, no. 1 (42), 2023, pp. 77-81.
13. Vahobov A.V., O'Imasov A. "Iqtisodiyot nazariyasi" Darslik. 2014-yil. 456 b.
14. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh., "Iqtisodiyot nazariyasi". "Barkamol fayz mediya", darslik. 2017- yil, 784-b.
15. Abduraxmonov Q.X. Mexnat iqtisodiyoti. "Fan va texnologiyalar", darslik. 2012-yil, 388 b.
16. Abulqosimov X.P. "Iqtisodiy xavfsizlik", darsligi, 2022-yil, 732-b.
17. Topildiyev S.R. "Iqtisodiy siyosat", OOO "Diadema nur servis" : Darslik - T: TDIU, 2025. – 372 bet.
18. Jurayev T. "Iqtisodiyot nazariyasi" "Fan va texnologiyalar nashriyot va matbaa uyi ", darslik. 2024- yil, 504-b.
19. Findlay, R., & O'Rourke, K. H. (2007). Power and plenty: Trade, war, and the world economy in the second millennium. Princeton University Press.
20. Smith, A. (1776). An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations (Vol. 1–2). W. Strahan and T. Cadell. [O'zb. tarj.: Smit, A. (2001). Xalqlar boyligi. O'zbekiston nashriyoti.]
21. Rosenstein-Rodan, P. N. (1943). Problems of industrialisation of Eastern and South-Eastern Europe. The Economic Journal, 53(210/211), 202–211.
<https://doi.org/10.2307/2226317>
22. Hirschman, A. O. (1958). The strategy of economic development. Yale University Press.
23. Schumpeter, J. A. (1942). Capitalism, socialism and democracy. Harper & Brothers.
24. Perez, C. (2002). Technological revolutions and financial capital: The dynamics of bubbles and golden ages. Edward Elgar Publishing.
25. Schwab, K. (2016). The fourth industrial revolution. World Economic Forum.
26. Rostow, W. W. (1960). The stages of economic growth: A non-communist manifesto. Cambridge University Press.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**